Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti

THE IMPACT RANKINGS

# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

## 1 O'TA QASHSHOQLIKKA BARHAM BERISH

1.4.3 - Sizning universitetingiz tashkilot sifatida barcha uchun asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun treninglar yoki dasturlarni tashkil qiladimi?










Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalar turar joyida bepul tibbiy ko‘rik tashkil etildi.
2022-yil 15-oktabr kuni psixolog Mo‘tabar Nazarova va pedagog Sayyora Mirzaevalar tashabbusi bilan Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasining 20 ga yaqin malakali shifokorlari tomonidan institut talabalari uchun “Sog‘lom tana – sog‘lom ruh” shiori ostida bepul tibbiy ko‘rik tashkil etildi.

Mazkur tibbiy ko‘rikda institutimizning barcha talabalari, jumladan, institut talabalar turar joylarida yashovchi qiz va o‘g‘il bolalar malakali shifokorlar maslahatidan o‘tib, salomatligini yana bir bor tekshirdi.



Toshkent kimyo-texnologiya instituti psixologi
"Stress va ruhiy motivatsiyadan xalos bo'lish usullari" mavzusida psixologik onlayn seminar-trening!!!!
📅 2022-yil 29-yanvar 🕘 soat 11:00



Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalar turar joyida yashovchi talaba qizlar bilan o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi.

- talabalar turar joylarining yashash xonalari va umumiy foydalanish joylarida sanitariya-gigiyena talablarini ta'minlash;

- talabalar turar joyining yashash xonasi, jihozlari va umumiy foydalanish joylarini toza va ozoda saqlash;

– talabalarning yotoqxonaga kirish va chiqish vaqti va tartibini yana bir bor tushuntirib berdi.

Suhbat davomida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.




2022-yil 10-noyabr kuni institutda “TOSHKENT” telekanali va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda yong‘in xavfsizligi, gaz va elektr ta’minoti hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga bag‘ishlangan o‘quv seminari o‘tkaziladi.
Tadbirda FVVning taklif etilgan xodimlari, “TOSHKENT” kanali, institut Yong‘in xavfsizligi bo‘limi, fakultet dekanati, professor-o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etishdi.